

MUSTAQILLIK YILLARIDA CHET EL INVESTITSİYALARINING QASHQADARYO VILOYATI SHAHARLARI TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Tursunov Anvar Saypullayevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

avar061484@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-3517-1305>

UDK: 325.111 (575.1) (091)

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati shaharlari va tumanlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilinadi. Muallif arxiv hujjatlari va davriy matbuot ma'lumotlariga tayangan holda, Turkiya, AQSh, Yaponiya, Germaniya va Niderlandiya kabi davlatlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma korxonalarining shakllanish tarixini yoritib bergan. Maqolada to'qimachilik, oziq-ovqat va neft-gaz sanoatidagi yirik loyihalarning hududiy infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda viloyatning eksport salohiyatini oshirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, xorijiy investitsiya, Qarshi, Shahrisabz, to'qimachilik sanoati, eksport, Sho'rtan gaz koni, infratuzilma.

Аннотация: В данной статье анализируются проекты, реализованные с участием иностранных инвестиций в городах и районах Кашкадарьинской области в годы независимости. На основе архивных документов и материалов периодической печати автор освещает историю формирования совместных предприятий, созданных в сотрудничестве с такими странами, как Турция, США, Япония, Германия и Нидерланды. В статье научно обоснована роль крупных проектов в текстильной, пищевой и нефтегазовой отраслях в развитии региональной инфраструктуры, создании новых рабочих мест и повышении экспортного потенциала области.

Ключевые слова: Кашкадарья, иностранные инвестиции, Карши, Шахрисабз, текстильная промышленность,

экспорт, Шуртанское газовое месторождение, инфраструктура.

Abstract: This article analyzes projects implemented with the participation of foreign investments in the cities and districts of the Kashkadarya region during the years of independence. Based on archival documents and periodical press materials, the author sheds light on the history of the formation of joint ventures established in cooperation with countries such as Turkey, the USA, Japan, Germany, and the Netherlands. The article scientifically substantiates the role of major projects in the textile, food, and oil and gas industries in developing regional infrastructure, creating new jobs, and increasing the export potential of the region.

Keywords: Kashkadarya, foreign investment, Karshi, Shahrisabz, textile industry, export, Shurtan gas field, infrastructure.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va aholini ish bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylandi. Bu borada Qashqadaryo viloyati o'zining boy tabiiy resurslari, agrar salohiyati va strategik joylashuvi bilan xorijiy investorlar uchun jozibador hudud sifatida namoyon bo'ldi. 1990-yillarning boshlaridan boshlab viloyat iqtisodiyotiga Turkiya, AQSh, Yaponiya, Germaniya va Niderlandiya kabi davlatlarning yirik korporatsiyalari sarmoya kirita boshladi. Ushbu investitsiyalar nafaqat yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, balki hududiy infratuzilmani tubdan yangilash, zamonaviy

texnologiyalarni joriy etish va mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash tizimini shakllantirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qildi. Mazkur maqolada 1992-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davr mobaynida Qashqadaryo viloyati shaharlari va tumanlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida amalga oshirilgan loyihalar, ularning iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ahamiyati arxiv hujjatlari hamda statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Qashqadaryo viloyatida chet ellik investorlar bilan hamkorlikda bir qator loyihalar amalga oshirildi. 1992-yilda Turkiyaning "Yazeks" korporatsiyasi va Qashqadaryo viloyat paxtani qayta ishlash va paxta mahsulotini sotish hududiy-davlat aksiyadorlik birlashmasi o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, Qarshi shahrida to'qimachilik kombinati qurilishi boshlangan bo'lib, 1993-yil iyul holatiga ko'ra, 362 mln so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilgan. To'qimachilik kombinati suv bilan ta'minlash maqsadida 2 dona 500 kubometrga mo'ljallangan suv yig'ish inshootlari, tashqi suv va oqova suv tarmoqlari 1993-yil 20-oktyabrga qadar topshirildi. To'qimachilik kombinatini elektr energiyasi bilan ta'minlash VL-35KV liniyasi va 35/6KV transformator podstantsiyasini 10 oktyabrga qadar topshirdilar[1].

1993-yil yoziga kelib O'zbekiston-Xitoy "Navro'z" qo'shma korxonasidagi terini qayta ishlash sexi uchun 220 ming AQSh dollari hisobida jihozlar olib kelinib o'rnatildi. Biroq zarur bo'lgan 30 tonna ximikatlar ham keltirilganiga qaramasdan qurilishdagi qoniqarsiz ahvolni hisobga olib Nishon tuman markazida joylashgan 4-sonli qurilish direksiyasi balansida bo'lgan, qurib tugallanmagan "Kislorod-Azot" stansiyasi binosi 1993-yil 17-noyabrda Qashqadaryo viloyat hokimining qarori bilan "Navro'z" qo'shma korxonasiga qarashli terini qayta ishlash sexi uchun olib berildi[2].

Aholini sifatli yog' mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida Qashqadaryo viloyatida qator amaliy ishlar bajarildi. Jumladan, 1996-yilda Shahrisabz shahrida "Shahri interneyshnl" O'zbek-Amerika qo'shma

korxonasi tuzildi. Zavod qurilishi "Markaziy Osiyo – Amerika tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" hisobidan amalga oshirildi. Qo'shma korxonaning ochilish marosimi 1997-yil 28-may kuni bo'lib o'tdi. Zavodda kuniga 4 tonna yog' ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi[3].

Shahrisabz konserva zavodi eng zamonaviy texnologik liniyalarni o'rnatishi natijasida Germaniya va Gollandiya singari davlatlarga o'z tovarini eksport qila boshladi. Zavodning sharbat quyish sexini takomillashtirib, O'zbekiston-Britaniya qo'shma korxonasi tashkil etildi. Uning ta'sischilari "Shahrisabzkonserva" ochiq turdagi hissadorlik jamiyati, Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyodagi investitsiya kompaniyasi va "O'zmevasabzavot" birlashmasi bo'ldi. Qo'shma korxonani rivojlantirish uchun 4 million AQSh dollariga yaqin mablag' ajratildi[4].

1998-yil 16-noyabrda Qashqadaryo viloyat hokimligi tomonidan Shahrisabz tumani G'.Boboyorov nomli jamoa xo'jaligi hududidan qo'shma korxonaga yog' ishlab chiqarish zavodini qurish uchun 2 gektar va zavodni ma'muriy binosi egallab turgan 23 gektar yer maydoni ajratildi[5].

1999-yilda Qashqadaryo viloyati bo'yicha 20 ta qo'shma korxona faoliyat ko'rsatib, ularda jami 1 milliard 300 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ulardan, O'zbekiston-Britaniya hamkorligidagi "Mevalar kamalagi", O'zbekiston-Singapur ishtirokidagi "Qarshi yog'" qo'shma korxonalarini ko'rsatish mumkin[6:212].

O'zbekistonning eksport salohiyati oshishida Sho'rtandagi gaz konida olib borilgan bunyodkorlik ishlari juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1998 yili "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi AQShning "ABB Lummus Global Consortium", Italiyaning "ABB Solari", Yaponiyaning "Mitsui & Co.Ltd", "Toyo Engineering", "Nisho Iwai Corp" kompaniyalari bilan korxonani loyihalashtirish, uskunalar yetkazib berish, qurilish borasida shartnoma imzolangan edi. Uni moliyalashtirish AQSh va Yaponiyaning eksport va import banklari, Germaniyaning "Germes" kredit agentligi, AQShning "Cheyz

Manxetten”, Germaniyaning “Kommersbank” va boshqa moliya muassasalari tomonidan amalga oshirildi[7].

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 9-avgustdagi 381-sonli qaroriga muvofiq «O‘zbekengilsanoat» uyushmasining Shahrisabz shahrida joylashgan “Sado” aksiyadorlik jamiyati tomonidan Yaponiyaning “Mitsubisi korporeyshn” va Turkiyaning “Bursel” firmalari bilan hamkorlikda taroqlangan kalava va trikotaj polotno ishlab chiqaruvchi «Oqsaroy to‘qimachi LTD» O‘zbekiston-Yaponiya-Turkiya korxonasi tashkil etildi. Qo‘shma korxonasining ustav fondi 2,444 mlrd Yaponiya iyesi miqdorida shakllantirildi. Undagi ulushlar quyidagicha taqsimlandi: “Sado” AJ — 41,75 foiz, “Bursel” firmasi — 54,85 foiz, “Mitsubisi korporeyshn” firmasi — 3,4 foiz[8].

“Oqsaroy to‘qimachi LTD” qo‘shma korxonasiga ip yigiruv fabrikasini qurishda ko‘maklashish maqsadida Qashqadaryo viloyat hokimi tomonidan 2000-yil 7-martdagi qarori bilan Shahrisabz shahri bosh rejasida belgilangan O‘zbekiston jamoa xo‘jaligi hududidan 6 gektar yer maydoni ajratildi[9]. 2002-yil 18-fevralda esa, viloyat hokimining qarori bilan Shahrisabz shahri bosh rejasida “Shahrisabz-Oqsaroy to‘qimachi LTD” qo‘shma korxonasiga kirish qismini hamda sport sog‘lomlashtirish kompleksini va stadion qurilishi maqsadida O‘zbekiston jamoa shirkat xo‘jaligi hududidan 4,1 gektar yer maydoni berildi[10].

Korxonadagi uskunarlar Yaponiyaning “Oxtori trugler”, “Xovo”, “Toyoto”, “Murato”, AQShning “Supreme vangard” firmalarida ishlab chiqarilgan va shu yilning o‘zida fabrikaga olib kelinib o‘rnatildi. Shartnoma bo‘yicha 24 oyda bitishi kerak bo‘lgan fabrika 16 oy ichida tugallandi uning qurilishiga 13 ta yapon injeneri va 120 nafar mahalliy ishchilar mehnat qildilar. 2002-yil 10-aprelda Shahrisabzda «Oqsaroy to‘qimachi LTD» Turkiya va Yaponiya bilan hamkorlikdagi qo‘shma korxonaning ochilish marosimi bo‘ldi. Bu korxona 640 kishini ish bilan ta‘minladi. «Oqsaroy to‘qimachi LTD» yiliga 4800 tonna tovar chiqarib, yuz foiz chetga eksport qiladi. Shundan 2800 tonnasi ip-kalava, 2000 tonnasi

xom trikotaj polotnosi hisoblanadi. Eksport qilishdan yiliga 20640 ming AQSh dollari miqdorida foyda ko‘riladi. 2002-yilda 1 tonna xom paxta jahon bozorida 850 dollarga sotilgan bo‘lsa, 850 kg yigirilgan ip 1650 dollar, 840 kg trikotaj matosi 2040 dollar, 13400 pogonometr gazlama 2565 dollar, 1300 ta choyshab 6800 dollar, 4200 dona futbolka 8075 dollarga baholangan. Qo‘shma korxona qurilishi uchun Yaponiyaning “Xalqaro hamkorlik” bankidan 47479 ming dollar miqdorida kredit olindi. Qo‘shma korxona ta‘sischilari qo‘shgan mablag‘ hisobga olinganda 66766 ming dollarlik investitsiya kiritildi[11].

Qashqadaryo viloyatida chet ellik investorlar bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini tashkil etish borasida ham qator ijobiy natijalarga erishildi. Masalan, 2001-yil Qashqadaryo viloyatida shu turdagi 4 ta qo‘shma korxona tuzildi. Kitob tumanidagi anor sharbatini qayta ishlovchi “Agros-AB” O‘zbek-Italiya, Qarshi shahrida meva sabzavotlarni qayta ishlovchi “Ermis” O‘zbek-Gretsiya, Qamashi tumanida momiq ishlab chiqaruvchi “Momiq” O‘zbek-Angliya, Qarshi shahrida tibbiy momiq va doka ishlab chiqaradigan “Qashfarmteks” O‘zbek-Buyuk Britaniya qo‘shma korxonalari shular jumlasidandir[12:189].

2004-yilning birinchi yarim yilligida Qashqadaryo viloyatidagi 46 ta qo‘shma korxonadan 38 tasi faoliyat ko‘rsatdi. Ularda birinchi yarim yillik yakuni bo‘yicha 20241,9 mln so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. 2005-yil 1- iyul holatiga ko‘ra 48 ta qo‘shma korxonalar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan 44 tasi faoliyat ko‘rsatdi. Qo‘shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 18790,6 mln so‘mni tashkil etdi[13].

2006-yilda Qashqadaryo viloyatida chet el investitsiyasi ishtirokidagi 57 ta qo‘shma korxona qayd etilgan bo‘lib, shundan 44 tasi faoliyat ko‘rsatdi[14]. Ayniqsa, AQSh, Germaniya, Xitoy, Turkiya va MDH davlatlari ishbilarmonlari bilan hamkorlikda momiq, ip kalava, oltingugurt, stol-stullar va boshqa sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Chet el investitsiyalarini jalb etish orqali 7505,4

ming AQSh dollari miqdoridagi 17 ta loyihalar amalga oshirilib, 46,5 mlrd soʻmlik mahsulot ishlab chiqarishga erishildi. Ushbu dastur doirasida 2006 yilda tijorat banklari tomonidan 2711,8 mln soʻm miqdoridagi 76 ta loyiha amalga oshirilib, 7 mlrd soʻmga yaqin mahsulotlar ishlab chiqarishga erishildi[15].

2012-yil noyabrda Qarshi shahrida ipak mahsulotlari ishlab chiqaruvchi Oʻzbekiston-Xitoy «Radiant Silk» qoʻshma korxonasi tashkil etildi. Ushbu loyihani amalga oshirish boʻyicha «Radiant Silk» korxonasi tomonidan 2012 — 2014 yillar mobaynida kamida 3,0 mln AQSh dollarini, shu jumladan I bosqichda (2014-yil 1-yanvargacha) — 1,8 mln AQSh dollarini, II bosqichda (2015 yil 1 yanvargacha) — 1,2 mln AQSh dollarini investitsiya qilish; 120 tonna xom ipak (I bosqich — 2013 yilda) va bir yilda 500 ming pogon metr ipak gazlama (II bosqich — 2014 yilda) ishlab chiqarish quvvatiga ega boʻlgan zamonaviy ipakchilik kompleksini tashkil etish; ishlab chiqariladigan mahsulotning kamida 80 foizini eksportga yetkazib berish; kamida 200 ta yangi ish oʻrinlari tashkil etish boʻyicha majburiyatlarni oʻz zimmasiga oldi[16].

Oʻzbekiston-Xitoy “Radiant Silk” qoʻshma korxonasining nizom fondi 18 585 130 000,000 soʻmni tashkil etadi. Korxonaning birinchi navbati 2013-yil 31-avgust kuni ishga tushdi[17]. Korxona 18-35 yoshli xotin-qizlarni ish bilan taʼminlab, kuniga 3 mahal issiq ovqat, uzoqdan qatnovchilar uchun yotoqxona bilan taʼminladi.

2014-yil 17-oktyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan Niderlandiyaning “LT Textile Cooperatief U.A.” kompaniyasi oʻrtasida shartnoma tuzildi. Kompaniya “Jinsheng group” korporatsiyasi tarkibiga kirib, oʻz mablagʻlar hisobidan Qarshi tumanida “LT Textile International” korxonasini ochishi va ip-yigiruv fabrikasini qurishiga kelishildi. Korxonaga Qarshi tumanidagi 30 gektar maydonli yer uchastkasi ajratib berildi. Niderlandiya kompaniyasi 2015-2016-yillar mobaynida 55 mln AQSh dollari, shu jumladan kompaniyaning oʻz mablagʻlari hisobiga — kamida 17 mln AQSh dollari va chet el banklari beradigan kreditlar hisobiga 38

mln AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritishni oʻz zimmasiga oldi[18].

Korxona qurilishi loyihasini amalga oshirish maqsadida 2015-yil 14- iyulda Qashqadaryo viloyat hokimining qarori bilan jami 30 gektar yer maydoni ajratildi. Ushbu korxonani muntazam elektr energiyasi bilan taʼminlash maqsadida 2017-yil 21-yanvarda viloyat hokimligi tomonidan “Qashqadaryo hududiy elektr tarmoqlari” AJga Qarshi tumanidagi Namuna massivida qurilayotgan ip-yigiruv fabrikasiga 35 kVtli elektr tarmogʻi oʻtkazish uchun Qoratepa QFY hududidan 24,45 gektar yer vaqtincha foydalanish uchun ajratildi[19].

Shu davrda amalga oshirilgan ishlar natijasida 2017-yilda fabrikaning yigiruv sexi toʻliq qurib bitkazilgan va 700 nafar ish oʻrni ochildi. “LT Textile International” MChJ korxonasida aralash ip-kalava va aralash gazlama ishlab chiqarish boʻyicha 2-bosqich loyihasini amalga oshirish maqsadida ajratilgan jami 30 gektar yer maydoni doimiy foydalanish uchun berildi[20].

2021-yil 22-dekabrda ushbu fabrikasining ikkinchi qismi ishga tushirildi. Buning uchun 115 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilindi. Natijada qoʻshimcha 900 ta ish oʻrni yaratildi. Har ikki navbatning ishga tushirilishi yiliga 15 ming tonna aralash ip-kalava ishlab chiqarish imkonini berdi[21].

Shahrisabz shahrida “Oqsaroy Group” kompaniyasi tarkibiga kiruvchi “Shahrisabz Textile” va “Oqsaroy Textile” korxonalari tashkil etilgan boʻlib, ularda umumiy qiymati 54 million dollar boʻlgan 3 ta loyihani bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilangan edi. Loyihalarni bajarish natijasida 1610 ta ish oʻrni yaratish va yiliga 22 million dollarlik mahsulot eksport qilish rejalashtirilgan edi[22].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hududning agrar viloyatdan industrial-innovatsion markazga aylanishida strategik rol oʻynadi. 1992-yildan boshlab Turkiya, AQSh, Yaponiya va Germaniya kabi davlatlar bilan yoʻlga qoʻyilgan hamkorlik nafaqat toʻqimachilik, oziq-ovqat va neft-gaz sanoatida zamonaviy

texnologiyalarni joriy etish, balki hududiy infratuzilmani — elektr tarmoqlari va suv inshootlarini tubdan yangilash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy sarmoya ishtirokida tashkil etilgan "Oqsaroy to'qimachi LTD", "LT Textile International" va "Radiant Silk" kabi yirik korxonalar mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali mahsulot qiymatini bir necha barobarga oshirishga va viloyatning eksport jug'rofiyasini Yevropa hamda Osiyo bozorlari hisobiga

kengaytirishga xizmat qildi. Eng muhimi, ushbu investitsion loyihalar minglab yangi ish o'rinlari yaratilishi, aholi farovonligining oshishi va Qarshi hamda Shahrisabz kabi shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi zamonaviylashishiga poydevor bo'ldi. Shunday qilib, xalqaro sarmoyaviy hamkorlik Qashqadaryo viloyati shaharlari taraqqiyotining eng muhim drayveri va barqaror iqtisodiy o'sishning kafolati bo'lib qolmoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro'yxat, 61-ish, 187-188-varaqlar.
2. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro'yxat, 66-ish, 84-87-varaqlar.
3. "Халқ сўзи" газетаси, 1997 йил 29 май, №115 (1632). – Б. 1.
4. "Ўзбекистон овози" газетаси, 1997 йил 27 май, №62 (22.146). – Б. 1.
5. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 8-ro'yxat, 35-ish, 104-varaq.
6. Каримов И. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Асарлар тўплами. 8-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 212.
7. "Халқ сўзи" газетаси, 2001 йил 21 декабр. №259 (2821).
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 9-августдаги "Оқсарой тўқимачи лтд" Ўзбекистон-Япония-Туркия қўшма корхонаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги 381-сонли қарори // <https://lex.uz/docs/2297704>
9. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 10-ro'yxat, 81-ish, 19-varaq.
10. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 15-ro'yxat, 23-ish, 69-varaq.
11. "Халқ сўзи" газетаси, 2002 йил, 30 март, №69 (2897). –Б. 1-2.
12. Равшанов А.Х. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон иқтисодиётининг барқарорлашувида хорижий сармояларнинг иштироки (Қашқадарё вилояти мисолида) // Та'лим va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 2024 йил №3. –Б. 189.
13. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 25-ro'yxat, 34-ish, 38, 44-varaqlar.
14. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 27-ro'yxat, 47-ish, 40-42-varaqlar.
15. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 27-ro'yxat, 34-ish, 11-varaq.
16. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 32-ro'yxat, 35-ish, 53-54-varaqlar..
17. <https://vesti.uz/v-karshi-zapustili-uzbeksko-kitajskoe-sp-po-pererabotke-kokonov-shelkopryada/>
18. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014-йил, 45-сон, 546-модда.
19. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 35-ro'yxat, 171-ish, 72-92-varaqlar.
20. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 2018 йил, 20-kitob, 158-varaq.
21. <https://xs.uz/uzkr/post/qarshi-tumanidagi-lt-textile-international-khorizhij-korkhonaning-ikkinchi-navbati-ishga-tushdi>
22. "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 13 ноябрь, №240 (7742). –Б. 1.